

UDK: 616.981.43.192

SIGIRLAR TUXUMDONLARIDA UCHRAYDIGAN PATOLOGIYALARGA ZAMONAVIY USULLARDA DIAGNOZ QO'YISH

*Suvanov S.A. tayanch doktorant
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti*

Annotasiya. Ushbu maqolada sigirlar tuxumdonlarida uchraydigan patologiyalarga zamonaviy Ultratovushli tekshirish apparati yordamida diagnoz qo'yish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tuxumdonlar, gipofunksiya, kista, sariq tana, ovarit, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar.

Mavzuning dolzarbligi. Oxirgi yillarda Respublikamizda qoramolchilikni fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida rivojlantirish, oziqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, qoramollar zotini yaxshilash va genofondini boyitishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning jadal texnologiyalar asosida rivojlanayotgan chorvachilik fermer xo'jaliklari sharoitida va aholi qaramog'ida saqlanayotgan mahsuldor sigirlarda oziqlantirish va parvarishlash qoidalariga amal qilinmasligi oqibatida patologik sariq tana tufayli bepushtlik ko'p qayd etilib, uzoq muddat qisir qolishi oqibatida sut mahsuldorligining pasayishi, buzoq olishning kamayishi, mahsuldor sigirlardan foydalanish muddatining keskin qisqarishi, kasalliklarni davolash va oldini olish uchun veterinariya xarajatlari hisobiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Shu sababli ushbu patologiyalarga tarqalishi, ertachi diagnoz qo'yish hamda oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish dolzarb xisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiyot [4] ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning asosiy podadan chiqarilishiga 80-90% hollarda bepushtliklar, moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari – 74-90%, sut bezlarining kasalliklari – 17%, tuxumdonlar gipofunksiyasi – 19%, tuxumdonlarning follikulyar va lyuteal kistalari – 3%, oyoqlarning kasalliklari – 15-17 %, ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari - 14-16%, mahsuldorlikning past bo'lishi – 18 % hollarda sabab bo'ladi. Sigirlardan xo'jalikda foydalanish o'rtacha 2,6 laktasiyaga teng bo'lgan.

Bepushtlikning belgilari hayvonning uzoq muddat davomida kuyga kelmasligi, bir necha marta urug'lantirishdan keyin ham urug'lanmaslik, jinsiy sikl muddatlarining buzilishi hisoblanadi [2].

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmaganda organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta'sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo'lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog'larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to'qimasi asta-sekin yog' kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg'ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyikmaydi [4].

N.M. Xilkevicha (2001) tadqiqotlariga ko'ra sigirlarda tuxumdonlar kasalliklari 30% mustaqil ravishda va 70% hollarda boshqa jinsir organlar yalig'lanishlari bilan birga uchraydi [5].

V.M. Shiriyev (2000) ma'lumotiga ko'ra klinik tadqiqotlar asosida sigirlarda tuxumdonlarning gipofunksiyasini paydo bo'lishi tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davr ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga keldi. Tuxumdonlarning gipofunksiyasi anafrodisiya va katta uchinchi follikullarning yo'qligi bilan namoyon bo'ldi. Natijada, sigirlarda tuxumdonlarning funktsional buzilishlari va tuxumdonlarning gipofunksiyasi turli muddatlarda bepushtlikka olib keladi nafaqat mamlakatimizning turli hududlarida, balki boshqa davlatlarda ham keng tarqalgan bo'lib, va chorvachilik sanoati uchun muhim iqtisodiy zarar [6].

Adabiyotlar [2] ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi va reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishiga essensial mikroyelementlarning (I, Co, Zn, Cu, Fye) rasionda yetishmasligi hamda hayvonlarni antisanitariya sharoitlarida saqlash sabab bo'ladi.

Hayvon me'yorida oziqlantirilganda ham modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan (oshqozon-ichak va boshqa a'zolar kasalliklarida) bo'lsa, alimentar qisirliklar kelib chiqishi mumkin [5].


Tadqiqotning maqsadi. Fermer xo'jaliklarda va aholi qaramog'ida parvarishlanayotgan sigirlarda tuxumdon patopogiyalari, jumladan persistent sariq tana, tuxumdonlar kistasi, gipofunksiya, folekula kistasi va tuxumdonlar atrofiyasining zamonaviy usullarda diagnostikasi va profilaktikasi ishning maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot obekti va usullari. Tadqiqotlarimiz Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi sut yo'nalishidagi qoramolchilik fermer xo'jaliklarida va aholi qaramog'ida parvarishlanayotgan sigirlarda olib borildi. Tekshirishlar obyekti sifatida 50 bosh 4-5 yoshdagi 2-tug'um sog'in sigirlar ajratib olindi. Dastlab, qoramollarda klinik tekshirishlar o'tkazilib, semizlik darajasi, ishtaha, shilliq pardalar, teri va teri qoplamasining holati, tana harorati, bir daqiqadagi yurak urishi va nafas soni, katta qorin devorining 5 daqiqadagi qisqarishlar soni, jinsiy az'olar holati va jinsiy reflekslarning namoyon bo'lishi aniqlandi. Sigirlarning bug'ozligi to'g'ri ichak orqali aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Xo'jalikda sigirlar rasioni asosan silos-konsentrat tipda ekanligi bilan xarakterlanadi. Aholi qaramog'ida saqlanayotgan sigirlar esa aralash tipda (yashil oziqa).

Tekshirishlar davomida sigirlarning tana harorati, yurak urishi va nafas soni fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, bir daqiqadagi nafas soni o'rtacha $17 \pm 0,7$ va yurak urishi – $71,1 \pm 2,1$ martani tashkil etdi. Oshqozon oldi bo'lmalarining 5 daqiqadagi qisqarishlari soni o'rtacha $8,9 \pm 1,2$ martani (me'yor - 5 daqiqada 8-12 marta) tashkil etdi, ya'ni sigirlarda oshqozon oldi bo'lmalari gipotoniya, ishtahani pasayishi va o'zgarishi (lizuxa), shilliq pardalarning oqarishi qayd etildi.

Fermer xo'jalikga qarashli 25 bosh va aholi qaramog'ida parvarishlanayotgan 25 bosh sigirlarda "JQ 3000" ultratovushli tekshirish (UTT) apparati yordamida 30 bosh sigirlarning turli oylardagi bo'g'ozligi, 6 bosh sigirning yaqinda tug'ganligi, qolgan 14 bosh sigirlarning bepushtligi, ya'ni ularda tuxumdonlarning gipofunksiyasi aniqlandi: 3 bosh sigirda persistent sariq tana, 3 bosh sigirda tuxumdonlar kistasi, chap tuxumdonning o'ng tuxumdonga nisbatan kattalashishi, 4 bosh sigirda bachadon subinvolyusiyasi, bachadon bo'shlig'ida ko'p miqdorda suyuqlik to'planishi, 4 bosh sigirda endometrit belgilari aniqlandi. Bu ma'lumotlar turli shakldagi bepushtliklarning tuxumdonlar gipofunksiyasi hamda sariq tanani saqlanib qolishi bilan kechishidan dalolat beradi. Tuxumdonlar gipofunksiyasi paytida sariq tananing bo'lishi o'z navbatida follikulalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va hayvon uzoq muddat qisir qoladi.



a.

b.

d.

1-rasm. JQ-3000 Ultrasaund ultratovushli tekshirish apparatida sigirlar tuxumdonlaridagi kista, follekulalarning yetilishi va sariq tananing ko'rinishi. (a-tuxumdon kistasi, b-follekula yetilish jarayoni, d-8 oy davomida surilmagan patologik sariq tana).

Xulosalar

1. Sog'in sigirlar tuxumdonlarida patologik jarayonlarni aniqlashda an'anaviy usullardan tug'ri ichak orqali tuxumdonlar paypaslanib diagnoz quyilar edi bugungi kunda esa ultratovushli tekshirish apparatidan foydalanilsa ushbu patologiyalarga ertachi va aniq diagnoz qo'yishga erishish mumkin.

2. Sog'in sigirlar va urug'lanish yoshidagi tanalar jinsiy organlarida: jumladan tuxumdonlar gipofunksiyasi, kista va sariq tana bor yoki yo'qligi shuningdek nechta follekula yetilgan va ular qay holatda ekanligiga aniq diagnoz quyish va shunga ko'ra davolash yoki sinxronlash ishlarini olib borishda bevosita ultratovushli tekshirish apparatidan foydalanilsa hayvonlar bosh sonini ko'paytirishda yetarlicha samaradorlikka erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baliev, S., & Ochilov, J. (2023). Treatment of Retained Placenta in Cows. *Global Scientific Review*, 11, 15-19.

2. Qo'ldoshev, O. U., & Ochilov, J. N. (2022). THE EFFECT OF MICROCLIMATE ON THE SEXUAL MATURITY OF COWS. *Conferencea*, 114-115.

3. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, June). PREGNANCY IN COWS EFFECTIVENESS OF FERTADINE IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 146-148).

4. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, May). PREGNANCY IN COWS THE EFFECTIVENESS OF THE GONADIN DRUG IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 149-151).

5. Kuldashiev, O. U. (2024). PREVENTION OF PLACE RETENTION IN COWS. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(5), 471-474.

6. Кулдашев, О. У. (1996). Сравнительная эффективность некоторых препаратов при пироплазмидозах крупного рогатого скота и возможности профилактики (экспериментальные исследования).

7. Болиев, Ш. К., & Кулдашев, О. У. (2018). СТИМУЛИРОВАНИЕ ВОСПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ФУНКЦИИ У КОРОВ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 120-122).

8. Кулдашев, О. У. (2022, April). ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ХРОНИЧЕСКИЙ ЭНДОМЕТРИТА У КОРОВ. In *E Conference Zone* (pp. 107-110).

9. Кулдашев, О., Очилов, Ж., & Хамракулов, Н. (2022). Влияние зоогигиенических и технологических режимов на организм животных в условиях жаркого климата. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 176-182.

10. Исаев, М., Кулдашев, О., & Акмалов, Ш. (2022). Вредное воздействие зерноотходов на кроликов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 120-122.

11. Исаев, М., & Кулдашев, О. (2022). Эффективность гидролизата белка при лечении незаразных болезней телят. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 123-125.

12. Кулдашев, О. У., Мавлонов, С. И., Исаев, М. Т., Очилов, Ж. Н., & Хамракулов, Н. Ш. (2021). НОВОЕ СРЕДСТВО ДЛЯ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАДЕРЖАНИЯ ПОСЛЕДА У КОРОВ. In *НАУЧНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА* (pp. 1387-1390).

13. Кулдашев, О. У. (2018). СИМПТОМАТИЧЕСКОГО БЕСПЛОДИЯ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 125-128).

14. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). УСТРОЙСТВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ВОЛОКОННО-ОПТИЧЕСКОЙ ЛИНИИ СВЯЗИ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 234-236).

15. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). Однонаправленный синхронный режим распространения информационных и шумовых сигналов в оптическом волокне. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 231-234).
16. Балиев, Ш., Шералиева, С., & Муртазин, Б. (2015). Профилактика послеродовых осложнений у коров. *in Library*, 1(4), 79-81.
17. Эшбуриев, Б., & Балиев, Ш. (2022). Сигирларда эндометритни даволашда “карбаказ” препаратининг самарадорлиги. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 339-345.
18. Муртазин, Б., Элмурадов, Б., Болиев, Ш., Наврузов, Н., & Шералиева, С. (2013). Лечение и профилактика гинекологических заболеваний у коров. *Ветеринарна медицина*, (97), 337-338.
19. Балиев, Ш., & Очиллов, Ж. (2023). Лечение задержки плаценты у коров. *in Library*, 1(1), 15-19.
20. Балиев, Ш. (2023). Организация акушерско-гинекологической диспансерной работы в животноводстве. *in Library*, 1(2), 205-206.
21. Балиев, Ш., & Эшбуриев, Б. (2022). Эффективность препарата карбаказы при лечении эндометрита у коров. *in Library*, 22(3), 339-345.
22. Балиев, Ш., & Суванов, С. (2022). Современные методы лечения эндометрита у продуктивных коров. *in Library*, 22(3), 25-27.
23. Балиев, Ш., Суванов, С., & Исмоилов, А. (2022). Причины эндометрита у продуктивных коров, содержащихся в хозяйствах. *in Library*, 22(2), 56-58.
24. Балиев, Ш., Муртазин, Б., Кулдашев, О., & Очиллов, Ж. (2017). Значение биологических препаратов в профилактике бесплодия крупного рогатого скота. *in Library*, 17(2), 32-34.
25. Балиев, Ш., Кулдошев, О., Мавланов, С., & Курбонов, Ф. (2016). Определение эффективности препаратов при лечении мастита. *in Library*, 16(2), 63-65.
26. Балиев, Ш., Муртазин, Б., Мавлонов, С., & Шералиева, С. (2013). Активизация половой активности коров естественными средствами и методами. *in Library*, 3(3), 20-24.
27. Ахмадалиева, Л. Х., Элмуродов, Б. А., Орипов, А. О., Салимов, Х., Рузимуродов, М. А., Исмамова, Р. А., ... & Улугмуродов, А. Д. (2021). ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖИВОТНЫХ И ЭКОСИСТЕМ В НИИ ВЕТЕРИНАРИИ. In *Проблемы трансформации естественных ландшафтов в результате антропогенной деятельности и пути их решения* (pp. 378-382).
28. Vajenov, L. G., Ruzimurodov, M. A., Artyomova, E. V., & Ten, R. M. (2008). Study and application of crystallogenic properties of Brucella for their identification and differentiation. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 22-23.
29. Рузимуродов, М. А. (2018). Новые инфекционные подходы в борьбе с бруцеллезом. *Ветеринария тиббиёти*, (2), 14-15.
30. Рузимуродов, М., Исмамова, Р., Кувватов, Б., & Улугмуродов, А. (2018). Создание коллекции эталонов производственных штаммов бруцелл для конструирования отечественных противобруцеллезных препаратов. *in Library*, 18(4), 9-11.
31. Ruzimurodov, M. A., & Nematov, A. S. (2005). Brucellosis as a natural focal infection in Uzbekistan. *Actual problems of infectious pathology. Thesis: Tashkent*, 9-10.
32. Джураев, О., Мамадуллаев, Г., & Рузимуродов, М. (1999). Сравнительная эффективность туберкулина ППД и туберкулина SQJ в аллергической диагностике туберкулеза крупного рогатого скота. *in Library*, 1(1), 110-111.
33. Джураев, О., Мамадуллаев, Г., & Рузимуродов, М. (1999). Сравнительная эффективность ППД-туберкулина и SKJ-туберкулина в алергодиагностике туберкулеза крупного рогатого скота. *in Library*, 1(1), 109-111.
34. Рузимуродов, М., & Улугмуродов, А. (2023). Дезинфекционные мероприятия при бруцеллезе животных (анализ литературы). *in Library*, 4(4), 8-10.